

Karantin qoidalariga amal qilib qilingan ibodat



Karantin qoidalariga amal qilib qilingan ibodat

Bugun So'x tumani, Sarikanda mahallasida joylashgan "Davronhoji jome masjidi" da juma namozi o'qildi. Masjid dargohini sog'ingan birodarlarimiz karantin qoidalariga amal qilishdi. Masjid imomining "Sabr" haqidagi ma'ruzasi namozxonlarga birdek manzur bulib, sabrning tagi oltin ekanligi, shukr qilib yashash kerakligini yana bir bor anglab yetishdi.

-"Karantin payti namoz o'qish g'alati ekan, niqob bilan, bir-birini ko'rish yo'q, lekin shunday bo'lsa ham bu sinovli kunlarda Olloh uzi qabul qiladi degan umiddamiz. Muhimi, biz yana birodarlarimiz bilan birgamiz. Bu kunlar hali o'tib ketadi. Biz yana ittifoq bo'lib, jiplashib ibodat qilamiz",- deydi namozxonlardan biri.

Ilohim, pandemiya vaqtidagi ilk o'qilgan namozimizni Olloh dargohida qabul qilsin. Qilingan niyatlar, duolar ijobat bulsin!

Tavakkal Obidjonov - Sarikanda mahalla fuqarolar yig'ini
2020-09-04 19:37:13